

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**USMANOVA NARGIZA KUDIRATULLAYEVNA**

**O‘ZBEKISTON FLORASIDAGI *MELILOTUS* VA *ARACHIS*  
TURKUMLARIGA MANSUB O‘SIMLIKLAR BIOLOGIK FAOL  
MODDALARINING KIMYOVIY TARKIBI**

**02.00.10 – Bioorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Usmanova Nargiza Kudiratullayevna**

О‘zbekiston florasidagi *Melilotus* va *Arachis* turkumlariga mansub o‘simliklar biologik faol moddalarining kimyoviy tarkibi ..... 5

**Усманова Наргиза Кудиратуллаевна**

Химический состав биологически активных компонентов растений родов *Melilotus* и *Arachis* флоры Узбекистана ..... 21

**Usmanova Nargiza Kudiratullayevna**

Chemical composition of biologically active components of plants of the genera *Melilotus* and *Arachis* of the flora of Uzbekistan..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 43

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**USMANOVA NARGIZA KUDIRATULLAYEVNA**

**O‘ZBEKISTON FLORASIDAGI *MELILOTUS* VA *ARACHIS*  
TURKUMLARIGA MANSUB O‘SIMLIKLAR BIOLOGIK FAOL  
MODDALARINING KIMYOVIY TARKIBI**

**02.00.10 – Bioorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/K367 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.fdu.uz](http://www.fdu.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim tarmog'ida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Botirov Erkin Xojiakbarovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Aripova Salima Fozilovna**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Jalolov Iqboljon Jamolovich**  
kimyo fanlari nomzodi

**Yetakchi tashkilot:**

**Qo'qon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.K.05.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19. Tel: (99873) 244 44 02, faks (99873) 244-44-93).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi., 19. Tel.:244 44 02, faks (99873) 244-44-93; e-mail: [fardu\\_info@umail.uz](mailto:fardu_info@umail.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**V.U. Xo'jayev**

Ilmiy daraja beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

**Sh.Sh. Turg'unboyev**

Ilmiy daraja beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, (PhD)

**Sh.V. Abdullayev**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi).

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo aholisi foydalanib kelayotgan dori vositalarini dorivor o‘simliklar xom ashyosi asosida tayyorlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Salbiy ta’siri kam bo‘lgan dorivor o‘simliklar xom ashyosi asosida tayyorlangan dori vositalari biologik faol birikmalar, vitamin va mineral moddalarga boy bo‘lib, inson organizmiga samarali ta’sirga ega. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, xalq tabobatida keng qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklardan ajratib olingan dorivor moddalarni ko‘p saqlagan yangi o‘simlik turlarini izlab topish, ulardan biologik faol moddalarni ajratib olish, kimyoviy tuzilishi va farmakologik faolliklarini aniqlash hamda ularni tibbiyotda qo‘llash muhim amaliy ahamiyatga ega.

Jahonda o‘simliklardan biologik faol moddalarni ajratib olishning samarali usullarini ishlab chiqish va ajratib olish, ularni kimyoviy hamda fizik-kimyoviy usullarda tahlil qilish, biologik faolliklarini aniqlash va amaliyotga qo‘llanilishini o‘rganish, ajratib olingan birikmalardan samarali dori vositalari yaratish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, *Fabaceae* (*Burchoqdoshlar*) oilasiga kiruvchi *Melilotus* hamda *Arachis* turkumiga mansub o‘simlik turlarini kimyoviy tarkibini o‘rganish, biologik faol birikmalarini ajratib olish, farmakologik xususiyatlarini tadqiq etish natijasida xalq tabobatida ma’lum biologik faolliklarni ilmiy asoslashga va yangi ta’sirdagi dorivor vositalar yaratishga katta e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda farmatsevtika sohasida aholini dorivor o‘simliklardan olingan biologik faol moddalarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish hamda dorivor o‘simliklar asosida zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda dori-vositalari ishlab chiqarishni kuchaytirish maqsadida keng ko‘lamda chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishildi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 22-maqsadida “Farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 barobar ko‘paytirish va mahalliy bozorni ta’minlash darajasini 80 foizga yetkazish” bo‘yicha amalga oshirilishi muhim bo‘lgan vazifalar belgilab berilgan<sup>1</sup>. Bu borada, respublikamizda o‘suvsuchi *Melilotus* va *Arachis* turkumi o‘simliklaridan biologik faol birikmalarini ajratib olish, kimyoviy tarkibini o‘rganish hamda ular asosida yuqori samarali arzon dori vositalarni ishlab chiqish sohasidagi ishlarni takomillashtirish va jadallashtirish, yangi tabiiy dori vositalarini yaratish muhim ilmiy amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-fevraldagi PQ-3532-son “Farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 10-apreldagi PF-5707-son “2019-2021-yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog‘ini yanada jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2022-yil 21-yanvardagi PF-55-son “2022-2026 yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son Farmoni.

huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VI. “Tibbiyot va farmakologiya” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** *Melilotus* va *Arachis* turkumiga mansub turlarining biologik faol moddalarini ajratib olish va kimyoviy tuzilishini aniqlash, farmakologik xossalarini o‘rganish va ular asosida yangi samarali dorivor vositalarni yaratish bo‘yicha bir qator xorijiy yetakchi olimlar, jumladan, Al-Snafi A.E. (Iroq) Xarlampovich T.A (Perm), Sheikh N. (Hindiston), Quijano-Celis C.E.(Kolumbiya), Pino J.A. (Kuba), Al boudi H.(Siriya), C. X. Wu (Xitoy), Yefremov A.A., Zikova (Krasnoyarsk), I.D., Kovaleva A.M., Grudko I.V., Gudizenko A.V., Vinogradov B.A. (Ukraina), Mert Ilhan (Turkiya), Tomoki Hirakawa (Yaponiya) tomonidan *Melilotus* turkumiga mansub 10 ga yaqin o‘simliklarning kimyoviy tarkibi tahlil qilingan va ulardan 150 dan ortiq birikmalar ajratib olinib, kimyoviy tuzilishi aniqlangan hamda ularning biologik faolliklari o‘rganilgan. Daigle D.J., Lopes R.M., Sobolev V.S., (Amerika), Tatsuno, T. (Kanada), Ingale S., Geetha K., Marka R., (Xindiston), Anyasor, G. N. (Nigeriya), Nguyen Kim T.P. (Vetnam) tomonidan *Arachis hypogaea* o‘simligi takibidagi flavonoidlari, fenol birikmalarini ajratib olish hamda biologik faolliklarini tadqiq qilish borasida keng qamrovli izlanishlar olib borilmoqda.

O‘zbekistonda tabobatda foydalanilayotgan mazkur o‘simliklardan biologik faol moddalarni ajratib olish va biologik faolliklari o‘rganilib, ular asosida samarali dori vositalari yaratish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Gusakova S.D., Yuldasheva N.K., Botirov E.X., Mullajonova M.T., Komilov X.M., Xodjamova M.K., Matniyazova N.X., Gaybullaev E.E. va boshqalar o‘simliklar tarkibidan turli birikmalar ajratib olish, ularning kimyoviy tuzilishlarini kimyoviy va fizik-kimyoviy usullarda o‘rganish, o‘simlik moylarining tarkibini tekshirish sohalarida samarali ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Biroq, O‘zbekiston hududida o‘suvsuchi *Melilotus albus* o‘simligi o‘rganilmagan. *Melilotus officinalis* o‘simligi kimyoviy tarkibi esa chuqur tahlil qilinmagan bo‘lib, lipidlari va kislota tarkibi, efir moyi tarkibi, biologik faolliklari o‘rganilmagan hamda dori vositalari yaratilmagan (*Melilotus* turkumi vakillari dunyo bo‘yicha tarqalgan jami 27 turdan 4 turi mamlakatimizda o‘sadi). *Arachis hypogaea* o‘simligi yer ustki qismi kam tadqiq qilingan, efir moyi tarkibi va biologik faolliklari o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Mahalliy o‘simliklardan fiziologik faol moddalar ajratish va tadqiq etish” va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘simlik moddalari kimyosi instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Neyrotrop, yallig‘lanishga qarshi, adaptogen, sitostatik, gepatoprotektiv, gipolipidemik, yaraga qarshi va radioprotektor birikmalarni tadqiq qilish” yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** *Melilotus albus*, *Melilotus officinalis*, *Arachis hypogaea* o'simliklaridan biologik faol birikmalar ajratib olish, ularning kimyoviy tuzilishini va farmakologik faolliklarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

*Melilotus albus*, *Melilotus officinalis* va *Arachis hypogaea* turlarini 70-75% etil spirti yordamida ekstraksiya qilish;

olingan ekstraktlarni qutbliligi ortib borish tartibida turli organik erituvchilarda fraksiyalarga ajratish;

ajratib olingan fraksiyalarni sifat reaksiyalari va xromatografik tahlillarini o'tkazish;

xromatografik tahlillarga asoslanib, ushbu fraksiyalarni turli erituvchilar sistemasida ustunli xromatografiya hamda rexromatografiya, kristallash, qayta kristallash, preparativ xromatografiya usullari yordamida sof holdagi birikmalar ajratib olish;

toza holda olingan moddalarning kimyoviy tuzilishi va xossalarini kimyoviy hamda fizik-kimyoviy usullar yordamida tadqiq qilish va ularning tuzilish formulalarini aniqlash;

gidrodistillyatsiya usulida olingan efir moylarini GX-MS natijalari asosida identifikatsiya qilish;

tuzilishi aniqlangan moddalarni biologik faolliklarini tadqiq qilish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Namangan viloyatidan terilgan *Melilotus officinalis*, *Arachis hypogaea* hamda Toshkent viloyatidan terilgan *Melilotus albus* o'simliklarining yer ustki qismlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** o'simlik turlarining yer ustki qismi kimyoviy tarkibi, ajratib olingan birikmalarning kimyoviy tuzilishi hamda biologik faolliklarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya tadqiqot ishini bajarishda ajratish va tozalash usullaridan; ekstraksiya, distillash, kolonkali va yupqa qatlam xromatografiyasi, qayta kristallash; moddalar tuzilishini aniqlashda fizikaviy tadqiqot usullaridan: UB, IQ spektroskopiyasi, <sup>1</sup>H, <sup>13</sup>C YaMR spektroskopiyasi, HSQC, HMBC va NOESY, mass spektrometriyasi (MS), gaz xromatografiyasi-mass-spektrometriyasi (GX-MS), rentgen tuzilish tahlili (RTT) usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

*Melilotus albus*, *Melilotus officinalis* hamda *Arachis hypogaea* L o'simlik turlarining yer ustki qismi tarkibidan biologik faol moddalarini ajratib olishning samarali usuli ishlab chiqilgan;

*Melilotus officinalis* va *Melilotus albus* o'simlik turlaridan jami 12 ta birikmalar toza holda ajratib olingan bo'lib, ulardan 9 tasi *Melilotus officinalis* o'simligidan birinchi marta ajratib olingan;

*Melilotus officinalis* o'simligi urug'ining lipid tarkibi hamda 14 turdagi to'yingan va to'yinmagan yog' kislotalari tarkibi gaz xromatografiyasi usuli yordamida isbotlangan;

*Melilotus officinalis*, *Melilotus albus* va *Arachis hypogaea* o'simliklarining yer ustki qismidan gidrodistillyatsiya usulida ajratib olingan efir moylarining tarkibidan

mos ravishda 49 ta, 5 ta va 47 ta jami 101 ta birikmalar GX-MS usulida identifikatsiya qilingan;

*Melilotus officinalis*, *Arachis hypogaea* o'simligidan ajratib olingan efir moylari va ekstraktlari *in vitro* sharoitida gram-musbat, gram-manfiy bakteriya, zamburug'larga nisbatan sezilarli faollikni namoyon qilishi isbotlangan;

*Melilotus officinalis* o'simligidan ajratib olingan kumarin, pinitol va 70% spirtli ekstraktning antioksidant, antigipoksant, qandli diabetda gipoglikemik, yallig'lanishga qarshi faolliklar ko'rsatishi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Respublikada keng tarqalgan va xalq tabobatida ishlatiladigan mahalliy xom ashyo *Melilotus officinalis* o'simligi yer ustki qismidan biologik faol moddalar pinitol va kumarinni ajratib olish usuli ishlab chiqilgan;

*Melilotus officinalis* o'simligi yer ustki qismi gipoglikemik ta'sirga ega bo'lgan pinitol moddasining boy tabiiy manbasi sifatida ishlatilishi mumkinligi isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Ajratib olingan moddalarni tadqiq qilishda zamonaviy fizik tadqiqot usullaridan UB, IQ, <sup>1</sup>H-YaMR, <sup>13</sup>C-YaMR spektroskopiya, jumladan 2D YaMR spektroskopiya, mass-spektrometriya, RTT, YuQX, kristallash va qayta kristallash, sifat reaksiyalari va guvoh moddalar bilan taqqoslash usullaridan foydalanilganligi hamda olingan natijalar asosida iqtibosga ega ilmiy nashrlarda ilmiy maqolalarning nashr qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, tanlangan o'simliklar tarkibidan biologik faol moddalarni ajratib olishning samarali usuli ishlab chiqilganligi, *Melilotus* turkumi vakillaridan 12 ta biologik faol moddalar ulardan 9 tasi o'simlikdan birinchi marta ajratib olingan bo'lib, kimyoviy xossalari tadqiq etilib, tuzilishi aniqlanganligi, efir moylari, lipid hamda to'yingan va to'yinmagan yog' kislotalari tarkibi o'rganilishi natijasida, tadqiqotni zamonaviy fizik-kimyoviy uslublar yordamida tahlil qilib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sifatida o'simliklardan ajratib olingan ekstrakt hamda efir moylari *in vitro* sharoitida gram-musbat, gram-manfiy bakteriya va zamburug'larga qarshi faolliklari aniqlanganligi, *Melilotus officinalis* o'simligidan ajratib olingan moddalar pinitol, kumarin va 70%-spirtli ekstraktning antioksidant, antigipoksant, qandli diabetda gipoglikemik, yallig'lanishga qarshi yuqori faolliklar namoyon qilib, kelajakda ulardan tibbiyot amaliyotida foydalanish mumkinligi to'g'risida xulosalar berilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** *Melilotus albus*, *Melilotus officinalis* va *Arachis hypogaea* o'simliklari kimyoviy tarkibini va biologik faolligini aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

*Melilotus officinalis* o'simligining quritilgan yer ustki qismidan ajratib olingan efir moyi va ekstraktlarining tanlangan bakteriya va zamburug'larga qarshi ta'siri natijalaridan "Tabiiy va sintetik birikmalarning biologik faolligini *in vitro* o'rganish. Oqsil injenerligi. Rekombinant oqsillarni tayyorlash. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan va boshqa turdagi kasalliklar diagnostikasi uchun aniq molekulyar-genetik markyorlarni ishlab chiqish" mavzusidagi bazaviy fundamental (2020-2024 yy) tadqiqotlarda ayrim kasalliklar diagnostikasi uchun molekulyar-genetik markyorlarni

ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2023 yil 15-sentabrdagi № 4/1255-1955-son ma’lumotnomasi). Natijada, efir moyi va etilatsetatli ekstraktlar gram-musbat va gram-manfiy bakteriyalarga (*B. subtilis* va *S. aureus*) nisbatan sezilarli faollikni namoyon etishi aniqlangan va kelajakda tibbiyotda zarur bo‘lgan dori vositalarini yaratish imkonini bergan;

*Melilotus officinalis* o‘simligining yer ustki qismi kimyoviy tarkibi hamda biologik faolliklaridan, Rossiya Federatsiyasi Surgut davlat universitetida “Технологии выращивания и извлечения биологически активных соединений северных ягодных культур и лекарственных трав (ЮграБиоФарм)” amaliy loyihasida shimoliy mintaqa dorivor o‘simliklari tarkibidagi biologik faol birikmalarni sifat va miqdoriy jihatdan tahlil qilishda foydalanilgan (Surgut davlat universitetining 2023-yil 2-maydagi № 03-01/143-son ma’lumotnomasi). Natijada, dorivor o‘simliklarni kimyoviy tarkibi va biologik faollik bo‘yicha solishtirish va loyiha uchun zarur natijalarni tahlil qilish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari jami 7 ta shundan, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta maqola, jumladan respublika ilmiy nashrlarda 3 ta maqola va xalqaro jurnallarda 4 ta maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, adabiyotlar sharhi, olingan natijalar muhokamasi, amaliy qismi, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, qisqartma so‘zlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 100 betni tashkil etgan.

Mazkur dissertatsiya ishining tajribaviy va laboratoriya tadqiqotlarining asosiy qismi O‘simlik moddalari kimyosi institutining Terpenoidlar va fenol birikmalar kimyosi laboratoriyasida bajarilgan. Dissertant O‘simlik moddalari kimyosi instituti rahbariyatiga, Terpenoidlar va fenol birikmalar kimyosi, Farmakologiya va toksikologiya, Molekulyar genetika, Fizikaviy tadqiqot usullari, Lipidlar kimyosi laboratoriyalari ilmiy hodimlariga va mazkur dissertatsiya ishini bajarishda hamkorlik ko‘rsatgan barcha hammualliflarga o‘z minnatdorchiligini bildiradi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish istiqbollari bo‘yicha xulosalar qilingan hamda chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “*Melilotus turkumi* hamda *Arachis hypogaea* o‘simligining kimyoviy tarkibi va biologik faolliklari” deb nomlangan birinchi bobida *M. officinalis*, *M. albus* hamda *Arachis hypogaea* o‘simliklarining tarkibi va ularning biologik faolliklari haqida va tarkibidagi kumarinlari, flavonoidlari, fenol birikmalari, efir moylari hamda lipidlari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “*Arachis hypogaea*, *Melilotus albus*, *Melilotus officinalis* o‘simliklarining tarkibi va biologik faolliklari” deb nomlangan ikkinchi bobida birinchi bo‘limida o‘rganilgan o‘simliklar to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot, asosan tadqiqot olib borish sxemasi, efir moylari tarkibini kimyoviy tahlili, ajratib olingan birikmalarni kimyoviy tuzilishini aniqlashda ishlatilgan usullar va olingan natijalarga asoslanib tuzilgan formulalar, yuqoridagi o‘simliklarning ekstrakt, efir moylari va individual birikmalarining bakteriya va zamburug‘larga qarshi faolligi, antioksidant, antigipoksant, gipoglikemik, yallig‘lanishga qarshi faolligi, qandli diabetda gipoglikemik ta’siri kabi biologik faolliklari tahlil natijalari to‘liq bayon etilgan va muhokama qilingan.

Dissertatsiyaning “*Arachis hypogaea*, *Melilotus albus*, *Melilotus officinalis* o‘simliklari tarkibidan efir moyi va individual birikmalarni ajratib olish” deb nomlangan uchinchi bobida *M. officinalis*, *M. albus* hamda *Arachis hypogaea* o‘simliklarining yer ustki qismidan efir moylarini ajratib olish va ekstraksiya qilish, ekstrakti fraksiyalarga bo‘lish, summalarni xromatografik usullar yordamida tekshirish, tadqiqotning kimyoviy va fizik-kimyoviy usullaridan foydalanib tahlil qilish, olingan natijalar asosida individual moddalar tuzilishini aniqlash jarayonlari to‘liq bayon etilgan.

### ***Arachis hypogaea* yer ustki qismi efir moyining tarkibi**

*Arachis hypogaea* L (yer yong‘og‘i) - Fabaceae oilasiga mansub va oziq-ovqat, farmatsevtika, yog‘- moy, kosmetika sanoatida muhim ahamiyatga ega o‘simlik bo‘lib, biologik faol birikmalarning boy manbai hisoblanadi va O‘zbekistonning turli hududlarida ko‘p miqdorda yetishtiriladi.

Biologik faol moddalarni izlab topish maqsadida Namangan viloyatida urug‘lash davrida yig‘ilgan *Arachis hypogaea* o‘simligi yer ustki qismining efir moyi komponent tarkibini o‘rganildi. O‘simlikning quritilgan va maydalangan yer ustki qismidan efir moyini ajratib olish atmosfera bosimida gidrodistillash usulida amalga oshirildi. Efir moyining unumi 0,11% ni tashkil qiladi.

GX-MS usulidan foydalanib efir moyi tarkibida umumiy miqdorining 99,3% ni tashkil qilgan 47 ta modda identifikatsiya qilindi. Efir moyi asosiy tarkibiy qismini oksidlangan monoterpenlar (47,8%), aldegidlar va ketonlar (24,7%), spirtlar (18,9%) tashkil qiladi. Efir moyining major komponentlari linalil atsetat (32,6%), 2-metil-1-butanol (12,6%), (*E*)-2-geksenal (10,5%),  $\alpha$ -terpineol (7,0%), (*Z*)-2-(3,3-dimetil)-siklogeksilidenetanol (grandlur II) (5,3%) va fenilatsetaldegid (5,1%) ekanligi aniqlandi. Efir moyi tarkibida parfyumeriya kompozitsiyalari, sovun va kosmetika mahsulotlari uchun xushbo‘y modda sifatida ishlatiladigan asiklik monoterpen linalil atsetatning miqdori ancha yuqori.

Efir moyining tarkibida suvaraklarning ogohlantiruvchi feromoni (*E*)-2-geksenal, qulupnayning asosiy zararkunandasi qulupnay uzuntumshug‘i feromoni

grandlur II va karam zararkunandasi *Lepidohtera* turkumi hasharotlari attraktanti fenilatsetaldegidlarning mavjudligi diqqatga sazovordir.

Shu tufayli *Arachis hypogaea* o'simligi yer ustki qismidan ekstraktlarini tegishli hasharotlarni jalb qiluvchi tuzoqlarning tabiiy manbai sifatida ishlatilishi mumkin. Efir moyi tarkibida keng spektrdagi farmakologik faollikka ega bo'lgan monotsiklik monoterpen spirti  $\alpha$ -terpineolni ko'p miqdorda (7,0%) uchrashi aniqlandi.

*In vitro* sharoitida o'tkazilgan tajribalarda olingan efir moyi *Bacillus subtilis* shtammiga qarshi sezilarli va *Salmonella enterica*, *Escherichia coli* hamda *Staphylococcus aureus* shtammlariga qarshi o'rtacha antimikrob faollik ko'rsatdi.

### ***Melilotus albus* yer ustki qismi efir moyining tarkibi**

*Melilotus albus* - antikoagulyant va fibrinolitik ta'sirga ega bir va ikki yillik o'simlik. Ushbu o'simlikning quritilgan yer ustki qismidan atmosfera bosimida gidrodistillash yo'li bilan olingan efir moyining tarkibini o'rganib chiqildi. Efir moyi o'ziga xos hidli och sariq moy bo'lib, 0,31% miqdorda olindi.

GX-MS usuli efir moyining asosiy komponenti kumarin ekanligini aniqlandi, uning miqdori 97,92% ni tashkil qiladi. Bundan tashqari 2-geksanal (0,3%), benzil spirti (0,3%), 2-1-benzopiran-2-on (0,3%) va stirol-7,8-oksidi (0,1%) ham aniqlangan.

Aniqlanishicha, O'zbekistonda o'sadigan *Melilotus albus* yer ustki qismi efir moyining tarkibi Rossiyada o'sadigan o'simlikning efir moyi tarkibidan sezilarli farq qiladi.

Toshkent viloyatida gullash davrida to'plangan *Melilotus albus* o'simligining yer ustki qismi 75% spirtli ekstraktining benzinli fraksiyasidan quritilgan o'simlik og'irligiga nisbatan 1,13% kumarin ajratib olindi.

### ***Melilotus officinalis* yer ustki qismi efir moyining tarkibi**

Namangan viloyati hududida (Qamchiq dovoni) gullash davrida yig'ilgan *Melilotus officinalis* yer ustki qismi efir moyining tarkibi o'rganildi. Quritilgan va yangi terilgan o'simlikdan efir moyi gidrodistillash usulida ajratildi. O'simlikning quritilgan yer ustki qismidan 1,1% miqdorda och sariq rangli efir moyi olindi.

GX-MS usulidan foydalanib, quritilgan va yangi terilgan o'simlik efir moyi tarkibida mos ravishda 49 va 22 ta birikmalar identifikatsiya qilindi, bu efir moyi umumiy miqdorining 98,0 va 99,2% ni tashkil qiladi.


Quritilgan va yangi terilgan efir moyining asosiy komponenti kumarin bo'lib, uning miqdori mos ravishda 83,2 va 87,9% ni tashkil qiladi. Quritilgan o'simlik efir moyi tarkibida kumarindan tashqari aktinidin (2,0%), maltol (1,1%), limonen,  $\gamma$ -terpinen, 1,8-tsineol, terpinen-4-ol,  $\alpha$ -terpineol, D-karvon, kariofillen, kariofillen oksid,  $\beta$ -damastsenon, fitol va boshqa spirtlar, ketonlar va karbon kislotalar borligi aniqlandi. Yangi terilgan o'simlikdan ajratilgan efir moyi tarkibida kumarin, digidrokumarin, benzil, feniletil spirtlari, furfural, karvon, terpinen-4-ol va boshqa moddalar mavjudligi aniqlandi.

O'zbekistonda o'sadigan *Melilotus officinalis* efir moyining kimyoviy tarkibi mazkur o'simlikning boshqa hududlarda o'sadigan namunalarning efir moylari tarkibidan keskin farq qilishi kuzatildi.

*Melilotus officinalis* o'simligining quritilgan yer ustki qismidan ajratib olingan efir moyi va ekstraktlari *in vitro* sharoitida gram-musbat va gram-manfiy bakteriyalarga (*Bacillus subtilis* va *Staphylococcus aureus*) nisbatan yuqori faollikni namoyon qildi.













### ***Melilotus officinalis* yer ustki qismi birikmalarining kimyoviy tahlili**

O'rganilgan o'simliklarni ekstraksiya qilish jarayoni 75% etil spirti bilan xona haroratida 5 marotaba olib borildi va olingan spirtli ekstrakt rotorli bug'latgichda bug'latildi. Quyultirilgan ekstrakt 1:1 nisbatda suv bilan suyultirildi, cho'kma qismi ajratilgach, filtrat quyultirib, silikagel bilan aralastirib quritildi va kolonkaga solindi. So'ngra kolonkani ekstraksiya benzol, xloroform, etilasetat, etilasetat-etanol bilan yuvib moddalarni fraksiyalarga bo'lindi. Olingan fraksiyalar YuQX usulida tekshirilib, ustunli xromatografiya, zarur hollarda qayta kristallash, rextromatografiya, gel-filtratsiya (sefadeks-LH-20) usullaridan foydalanib toza moddalar ajratib olindi. Ajratib olingan sof moddalarning tuzilishlari kimyoviy va fizik-kimyoviy usullarda tahlil qilinib isbotlandi (1-sxema).



**1-sxema.** *Melilotus officinalis* o'simligidan samarali usulda kumarin va individual birikmalarni ajratib olishning sxemasi

Quyida *Melilotus officinalis* o'simligidan ajratib olingan individual moddalarning tuzilish formulalari keltirilgan.



Quyida *Melilotus officinalis* o'simligidan ilk bor ajratib olingan individual birikmalarning tahlili keltirilgan.

Xloroformli fraksiyadan **(2)** diizooktilftalat ajratib olindi.

**Diizooktilftalat (2).** Tarkibi  $C_{24}H_{38}O_4$ . UB spektr (EtOH,  $\lambda_{max}$ , nm): 231, 281. Uning  $^1H$ -YaMR (DMSO- $d_6$ ,  $\delta$ , m.d., J/Gs) 1,2- almashgan benzol xalqasining aromatik protonlari ikkita izooktil guruhining signallarini ko'rsatadi 0.84-0.88 (12H, t, 7.2 Gs, 4CH<sub>3</sub>), 1,22-1,37 (16H, m, 8CH<sub>2</sub>), 1,61-1,66 (2H, m, 2CH), 4,10-4,17 (4H, t, 6.8 Gs, 2CH<sub>2</sub>O), 7,66 (2H, dd, 3.6 va 5.6 Gs, H-4,5), 7.73 (2H, dd, 3.6 va 5.6 Gs, H-3, 6).

$^{13}C$ -YaMR spektrida (CDCl<sub>3</sub>,  $\delta$ , m.d.) 1,2- almashgan benzol xalqasining uglerod atomlari ikkita karbonil va ikkita izooktil guruhi signallarini o'z ichiga oladi: 167.88 (C-1,8), 132.60 (C-2,7), 131,00 (C-4,5), 128.93 (C-3,6), 68.27 (C-1', 1''), 38,87 (C-2', 2''), 30,49 (C-3', 3''), 29,06 (C-4', 4''), 23,88 (C-5',5''), 23,11 (C-6', 6''), 14,17 (C-7', 7''), 11,08 (C-8', 8''). Bu moddani ishqoriy gidroliz qilib ftal kislotasi olindi. Diizooktilftalat avval *Adenophora lilifolia*, *Cardiospermum canescens*, *Coriandrum sativum*, *Equisetum arvense* va boshqa o'simliklardan ajratib olingan.

Etilatsetatli fraksiyadan **(3)** (+)-D-pinitol, **(4)** *p*-gidroksibenzoy kislota va **(5)** *p*-gidroksidolchin kislota, **(6)** daukosterin, **(7)** androsin ajratib olindi.

**(+)-D-pinitol (3).** Tarkibi  $C_7H_{14}O_6$  oq yaltiroq kristall. suyuq. haror. 190-192°C, UB sohasida yutilish bermaydi, IQ spektrida gidroksil guruhlarning yutilish zonalarini (3600-3250  $cm^{-1}$ ), alifatik C-C bog'lar (2300-2950  $cm^{-1}$ ) va C-O bog'lar (1175  $cm^{-1}$ ).  $^1H$ -YaMR (600 MGs, D<sub>2</sub>O+atseton- $d_6$ , m.d., J/Gs): 3.17 (1H, t, J=9.7, H-6), 3.48 (1H, t, J=9.6, H-5), 3.43 (3H, s, OCH<sub>3</sub>), 3.59 (1H, dd, J=9.9, 2.9, H-4), 3.64 (1H, dd, J=9.9, 2.8, H-1), 3.84 (2H, m, H-2, H-3), 4.66 (singlet kengaygan signal, OH-gruppaning kengaygan singlet) (1-rasm),  $^{13}C$ -YaMR (D<sub>2</sub>O+atseton- $d_6$ ,  $\delta_s$ , m.d.): 82.8 (C-6), 72.2 (C-5), 71.7 (C-2), 71.5 (C-3), 70.6 (C-4), 69.9 (C-1), 59.8 (OCH<sub>3</sub>) (2-rasm).

***p*-Gidroksibenzoy kislota (4).** Tarkibi  $C_7H_6O_3$ . Suyuq. haror. 214-216°C. Oq kukunsimon moddadir. UB spektr (MeOH):  $\lambda_{max}$  206, 254 nm;  $^1H$  YaMR (600 MGs, CD<sub>3</sub>OD,  $\delta$ , m.d., J/Gs): 7.81 (2H, d, J=8.8, H-2,6), 6.75 (2H, d, J=8.8, H-3,5);  $^{13}C$  YaMR (150 MGs, CD<sub>3</sub>OD,  $\delta$ , m.d.): 170.58 (C-7), 163.18 (C-4), 132.95 (C-2,6), 123.26 (C-1), 115.98 (C-3,5).

***p*-Gidroksidolchin kislota (5).** Tarkibi  $C_9H_8O_2$ . suyuq. haror. 210-212°C.  $^1H$  YaMR (600 MGs, CD<sub>3</sub>OD,  $\delta$ , m.d., J/Gs): 7.51 (1H, d, J=15.9, H-7), 7.37 (2H, d, J=8.6, H-2,6), 6.74 (2H, d, J=8.6, H-3,5), 6.23 (1H, d, J=15.9, H-8),  $^{13}C$  YaMR (150 MGs, CD<sub>3</sub>OD,  $\delta$ , m.d.): 171.33 (C-9), 160.99 (C-4), 146.05 (C-7), 130.96 (C-2,6), 127.41 (C-1), 116.78 (C-3,5), 116.46 (C-8).

**Daukosterin (6)** ( $\beta$ -sitosterin-3-*O*- $\beta$ -D-glyukopiranozid). Tarkibi  $C_{35}H_{60}O_6$ , rangsiz ignasimon kristall modda. suyuq. haror. 275-277 °C;  $^1H$  YaMR (600 MGs, Py- $d_5$ ,  $\delta$ , m.d., J/Gs): 5.36 (1H, m, H-6), 5.08 (1H, d, J=7.7, H-1'), 4.58 (1H, dd, J=11.6, 2.1, H-6' $\beta$ ), 4.44 (1H, dd, J=11.7, 5.1, H-6' $\alpha$ ), 4.32 (1H, m, H-3', H-4'), 4.08 (1H, dd, J=8.2, 7.9, H-2'), 4.00 (1H, m, H-5'), 3.97 (1H, m, H-3), 2.75 (1H, ddd, J=13.3, 4.2, 2.2, H-4b), 2.49 (1H, m, H-4a), 2.16 (1H, m, H-2b), 1.99 (1H, ddd, J=12.6, 3.8, 3.3, H-12b), 1.91 (1H, m, H-7b), 1.86 (1H, m, H-16b),

1.75 (1H, m, H-2a), 1.73 (1H, m, H-1b), 1.70 (1H, d.sep, J= 6.8, 2.0, H-25), 1.57 (1H, m, H-15b), 1.55 (1H, m, H-7a), 1.45 (1H, m, H-11b), 1.42 (1H, m, H-11a), 1.42 (1H, m, H-22b), 1.40 (1H, m, H-20), 1.39 (1H, m, H-8), 1.31 (1H, m, H-28), 1.27 (2H, m, H-23), 1.27 (1H, m, H-16a), 1.12 (1H, m, H-12a), 1.12 (1H, m, H-17), 1.10 (1H, m, H-22a), 1.05 (1H, m, H-15a), 1.02 (1H, m, H-24), 1.00 (3H, d, J=6.5, Me-21), 1.00 (1H, m, H-1a), 0.95 (3H, s, Me-19), 0.95 (1H, m, H-14), 0.92 (1H, m, H-9), 0.91 (3H, t, J=7.4, Me-29), 0.88 (3H, d, J=6.8, Me-26), 0.90 (3H, d, J=6.8, Me-27), 0.68 (3H, s, Me-18), <sup>13</sup>C YaMR (150 MGs, Py-d<sub>5</sub>, δ, m.d.): 37.96 (C-1), 30.74 (C-2), 78.57 (C-3), 39.82 (C-4), 141.39 (C-5), 122.40 (C-6), 32.65 (C-7), 32.53 (C-8), 50.82 (C-9), 37.40 (C-10), 21.76 (C-11), 40.43 (C-12), 42.96 (C-13), 57.30 (C-14), 24.99 (C-15), 29.02 (C-16), 56.72 (C-17), 12.45 (C-18), 19.90 (C-19), 36.87 (C-20), 19.49 (C-21), 34.69 (C-22), 26.86 (C-23), 46.52 (C-24), 29.94 (C-25), 19.69 (C-26), 20.45 (C-27), 23.87 (C-28), 12.63 (C-29), 103.07 (C-1'), 75.83 (C-2'), 78.98 (C-3'), 72.18 (C-4'), 79.11 (C-5'), 63.33 (C-6').

**Androsin (7)** (4-O-β-D-glyukopiranozil-atsetovanillon). Tarkibi C<sub>15</sub>H<sub>20</sub>O<sub>8</sub>. UB spektr (etanol): λ<sub>max</sub> 274, 309 nm; <sup>1</sup>H YaMR (400 MGs, CD<sub>3</sub>OD, δ, m.d., J/Gs): δ 7.64 (1H, dd, J=8.5, 2.0, H-6), 7.58 (1H, d, J=2.0, H-2), 7.23 (1H, d, J=8.5, H-5), 5.04 (1H, d, J=7.1, H-1'), 3.91 (3H, s, 2-OCH<sub>3</sub>), 3.89 (1H, dd, J=12.1, 2.1, H-6'b), 3.69 (1H, dd, J=12.1, 5.5 Gs H-6'a), 3.53 (1H, dd J=9.2, 7.5, H-2'), 3.48 (1H, dd J=9.2, 8.5, H-3'), 3.47 (1H, ddd J=9.6, 5.1, 2.1, H-5'), 3.40 (1H, dd J=9.5, 8.7, H-4'), 2.57 (3H, s, COCH<sub>3</sub>).

<sup>13</sup>C YaMR (100 MGs, CD<sub>3</sub>OD, δ, m.d.): 132.92 (C-1), 112.41 (C-2), 150.63 (C-3), 152.49 (C-4), 116.15 (C-5), 124.43 (C-6), 199.38 (C-7), 26.40 (C-8), 56.62 (2-OCH<sub>3</sub>), 101.83 (C-1'), 74.72 (C-2'), 77.86 (C-3'), 71.22 (C-4'), 78.36 (C-5'), 62.43 (C-6'). Androsin kislotali sharoitda gidroliz qilinganda D-glyukoza olindi.

Erituvchini qutbliligini oshirish uchun Etilatsetat:etanol 90:10 sistemada **(8)** kempferol 3-O-β-D-galaktopiranozid, **(9)** kvertsetin 7-O-α-L-ramnopiranozid ajratib olindi.

**Kempferol 3-O-β-D-galaktopiranozid (8)**. Tarkibi C<sub>21</sub>H<sub>20</sub>O<sub>11</sub> suyuq. haror. 236-238 °C; UB-spektr (λ<sub>max</sub>, EtOH, nm): 260, 350; <sup>1</sup>H YaMR (600 MGs, Py-d<sub>5</sub>, δ, m.d., J/Gs): 4.18 (m, H-5"), 4.30 (1H, m, N-6"), 4.41 (1H, dd, J=5.3 va 11.1, H-6"), 4.36 (dd, J = 3.4, 9.3, H-3"), 4.63 (ush.d, J=3.4, H-4"), 4.83 (dd, J=7.8, 9.3, H-2"), 6.32 (1H, d, J=7.7, H-1"), 6.56 (1H, s, H-6), 6.76 (1H, d, J=2.2, H-8), 7.19 (2H, d, J=8.8, H-3'5'), 8.52 (2H, d, J=8.8, H-2',6'), <sup>13</sup>C YaMR (150 MGs, Py-d<sub>5</sub>, δ, m.d.): 62.37 (C-6"), 70.24 (C-4"), 73.81 (C-2"), 75.84 (C-3"), 78.11 (C-5"), 100.30 (C-6), 105.26 (C-1"), 135.36 (C-3), 105.71 (C-10), 116.52 (C-3',5'), 122.47 (C-1'), 95.07 (C-8), 132.45 (C-2',6'), 157.96 (C-9), 166.43 (C-7), 163.27 (C-5), 162.13 (C-4'), 158.06 (C-2), 179.34 (C-4).

**Kvertsetin 7-O-α-L-ramnopiranozid (9)**. Tarkibi C<sub>21</sub>H<sub>20</sub>O<sub>11</sub> suyuq. haror. 263-265 °C; UB-spektr (λ<sub>max</sub>, EtOH, nm): 278, 308, 337. <sup>1</sup>H YaMR (600 MGs, Py-d<sub>5</sub>, δ, m.d., J/Gs): 1.64 (3H, d, J=6.0, H-6"), 4.29 (1H, m, H-4"), 4.41, dk, J=9.4, 6.0, H-5"), 4.68 (1H, dd, J=9.0, 3.2, H-3"), 4.73 (1H, m, H-2"), 6.26 (1H,

d, J=1.8, H-1''), 6.80 (1H, d, J=2.2, H-6), 6.98 (1H, d, J=2.2, H-8), 7.57 (1H, d, J= 8.4, H-5'), 8.17 (1H, dd, J= 8.4, 2.4, H-6'), 8.61 (1H, d, J=2.4, H-2').

<sup>13</sup>C YaMR (150 MGs, Py-d<sub>5</sub>, δ, m.d.): 19.10 (C-6'') 71.89 (C-5''), 72.12 (C-2''), 72.89 (C-3''), 74.07 (C-4''), 94.98 (C-8), 100.12 (C-1''), 100.39 (C-6), 106.44 (C-10), 116.99 (C-2'), 117.18 (C-5'), 121.74 (C-6'), 123.82 (C-1'), 138.71 (C-3), 147.60 (C-3'), 148.78 (C-2), 149.83 (C-4'), 157.17 (C-9), 162.35 (C-5), 162.91 (C-7), 177.81 (C-4).

*Melilotus officinalis* yer ustki qismi ekstrakti quyultirilganda ekstrakti (1:1) nisbatda suv bilan suyultirib bir kundan so'ng filtrlandi. So'ngra xlorofilli cho'kma qismi ajratildi va etilatsetat:etanol 80:20 sistemada yuvilgan fraksiyasidan **(12) N-fenil-2-naftilamin** kristallari ajratib olindi.

### ***Melilotus officinalis* o'simligi lipidlari tahlili**

